

# MUHANDISLIK

## & IQTISODIYOT

### №4 (2)

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026  
APREL



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™  
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic Resource Index  
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE


ROAD

INDEX COPERNICUS INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ БИБЛИОТЕКА LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ  
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ  
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА  
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, aprel.

## **Bosh muharrir:**

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

## **Bosh muharrir o'rinbosari:**

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

## **Tahrir hay'ati:**

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor  
Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor  
Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,  
Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Turov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent  
Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent  
Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD  
Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)  
Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.  
Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor  
Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.  
Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

Annotatsiya. \_\_\_\_\_

Kalit so'zlar: \_\_\_\_\_

Abstract. \_\_\_\_\_

Keywords: \_\_\_\_\_

Аннотация. \_\_\_\_\_

Ключевые слова: \_\_\_\_\_

Annotatsiya. \_\_\_\_\_

Kalit so'zlar: \_\_\_\_\_

Аннотация. \_\_\_\_\_

Ключевые слова: \_\_\_\_\_

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi  
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari  
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash  
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari  
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti  
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi  
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari  
05.01.07 – Matematik modellashtirish  
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt  
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik  
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari  
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti  
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash  
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi  
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari  
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari  
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi  
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish  
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)  
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar  
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari  
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik  
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti  
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi  
08.00.02 – Makroiqtisodiyot  
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti  
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti  
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti  
08.00.06 – Ekonometrika va statistika  
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit  
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit  
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti  
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti  
08.00.11 – Marketing  
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot  
08.00.13 – Menejment  
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari  
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti  
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya  
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

## Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:**

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



# MUNDARIJA

BYUDJET SUBYEKTLARI ISHTIROKINI QISQARTIRISH ASOSIDA KREDIT RISKINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	16
<b>PhD. Mahmudov Rahimjon Hamid o'g'li</b>	
MINTAQA IQTISODIYOTI TARMOQLARINI KLASTERLASHTIRISH SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING EMPIRIK MODEL: STATISTIK VA EKONOMETRIK TAHLIL.....	25
<b>Ollokulova Feruza Mansurovna, Abdurahmonov Abdulaziz Maxmudovich</b>	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA PUL OQIMLARI AUDITINI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI.....	30
<b>Atamurodov Saidmurad Yaxyoyevich, Sindarova Aziza Musurmon qizi</b>	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISHNI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	42
<b>Xasanov Sardor Xazratkulovich</b>	
IQTISODIY O'SISH SIFATI VA UNI KO'RSATKICHLARINING KONSEPTUAL ASOSLARI.....	55
<b>Axmedov Xasanjon Muxamadovich</b>	
IQTISODIY O'SISH SIFATI VA UNI KO'RSATKICHLARINING KONSEPTUAL ASOSLARI.....	55
<b>Axmedov Xasanjon Muxamadovich</b>	
ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING KORXONALAR RENTABELLIGIGA TA'SIRI.....	60
<b>Hayitov Jamshid Xolboyevich</b>	
KREDITLASH MEXANIZMINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI VA UNING TARIXIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI.....	65
<b>Ortiqov Husan Usmonaliyevich</b>	
DAVLAT SEKTORIDA ICHKI AUDIT FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH.....	70
<b>Xamidova Zarifa Urol qizi</b>	
ISTE'MOL NARXLARI INDEKSINI MODELLASHTIRISH VA PROGNOZLASHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	74
<b>Ismailova Shaxnoza Uktamovna</b>	
XIZMATLAR SEKTORI RIVOJLANISHINING KAMBAG'ALLIKKA TA'SIRINI BAHOLASH METODOLOGIYASI VA KO'RSATKICHLAR TIZIMI.....	77
<b>Dawletmuratov Adilbay Mirzaboyevich</b>	



# IQTISODIY O'SISH SIFATI VA UNI KO'RSATKICHLARINING KONSEPTUAL ASOSLARI

**Axmedov Xasanjon Muxamadovich**

**Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi**

**ORCID: 0009-0004-0732-1293**

**E-mail: [x.axmedov@xb.uz](mailto:x.axmedov@xb.uz).**

**Annotatsiya.** maqolada “iqtisodiy o'sish”, “iqtisodiy rivojlanish” va “iqtisodiy o'sish sifati” iqtisodiy kategoriyalarining mohiyati, mazmuni, ularning umumiy va farq qiluvchi jihatlari hamda iqtisodiy o'sish sifati konseptual asoslari ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** “iqtisodiy o'sish”, “iqtisodiy rivojlanish”, “iqtisodiy o'sish sifati”, ehtiyojlar, farovonlik, texnika taraqqiyoti, atrof-muhitning ifloslanishi, institutsional tuzilma, transformatsiya, ekzogen va endogen omillar, innovatsion transformatsiya, barqaror rivojlanish.

**Abstract.** The article explores the essence and content of the economic categories “economic growth”, “economic development”, and “quality of economic growth”, as well as their common and distinguishing features, and reveals the conceptual foundations of the quality of economic growth.

**Keywords:** “economic growth”, “economic development”, “quality of economic growth”, needs, welfare, technological progress, environmental pollution, institutional structure, transformation, exogenous and endogenous factors, innovation transformation, sustainable development.

**Аннотация.** в статье раскрываются сущность и содержание экономических категорий «экономический рост», «экономическое развитие» и «качество экономического роста», а также их общие и отличительные особенности, а также концептуальные основы качества экономического роста.

**Ключевые слова:** «экономический рост», «экономическое развитие», «качество экономического роста», потребности, благосостояние, технический прогресс, загрязнение окружающей среды, институциональная структура, трансформация, экзогенные и эндогенные факторы, инновационная трансформация, устойчивое развитие.

## KIRISH

Jahon iqtisodiyotida globallashuv va integratsiya jarayonlari kuchayib borayotgan bugungi kunda uning rivojlanish istiqbolini fan-texnika taraqqiyotining sur'atlari, kapital va inson resurslaridan foydalanish imkoniyatlari belgilab bermoqda. Jahonda texnika taraqqiyoti va innovatsiyalarga asoslangan ishlab chiqarishni rivojlantirish, iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish va barqaror rivojlanishni ta'minlash orqali ko'proq sifat ko'rsatkichlariga erishishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida iqtisodiyotni texnik-texnologik jihatdan modernizatsiya qilish, tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, mamlakat eksport salohiyatini kengaytirish asosida aholi turmush sifatini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

“Bir so'z bilan aytganda, biz islohotlarni aniq amaliy natijaga aylantirishni o'rgandik. Buning tasdig'ini tobora yangicha qiyofa kasb etib borayotgan shahar va qishloqlarimizda, zamonaviy korxonalar, savdo-servis maskanlari, maktab, bog'cha va shifoxonalar, obod ko'cha va mahallalar, transport-logistika tizimi hamda raqamli xizmatlar misolida yaqqol ko'rish mumkin” [1].

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Iqtisodiy o'sish va iqtisodiy o'sish sifatini tadqiq etgan g'arb iqtisodchi olimlarga: Y. Shumpeter, J. Keyns, R. K. Xarrod, K. Makkonell, S. Bryu, R. Agion, D. Asemoglu, S. Jonson, J. Robinson, E. Xansen, G. Mensh, K. N. Oppenlander, N. G. Mankyu, D. Galbreyt, D. Klark va boshqalarni kiritish mumkin.

Iqtisodiy o'sish sifatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning tamoyillari va uning ayrim metodologik jihatlari rossiyalik olimlar R. A. Nuriyev, N. I. Ivanova, V. L. Tambovsev, I. A. Pogosov, T. N. Polyakova, Ye. F. Borisov, Ye. I. Lavrov, S. A. Smolyak, T. G. Kasyanenko, M. S. Ochkovskaya va boshqalar tomonidan ham tadqiq qilingan.

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan A. V. Vahabov, X. P. Abulqosimov, T. T. Jo'rayev, A. A. Mamatov, U. A.

Madrahimov va B. B. Valiyevlarning ilmiy tadqiqot ishlarida milliy iqtisodiyotda barqaror iqtisodiy o'sish sifatini ta'minlash masalalari bo'yicha atroflicha tadqiqotlar olib borilgan.

Y. Shumpeter iqtisodiy o'sish va iqtisodiy rivojlanish o'rtasidagi tafovutlarni ko'rsatib beradi [2]. U iqtisodiy o'sishni miqdoriy o'zgarishlar — bir vaqtning o'zida ayni bir xil tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish va iste'mol qilishning o'sishi, iqtisodiy rivojlanishni esa ishlab chiqarish, mahsulot va xizmatlar, boshqaruv, iqtisodiy faoliyat turlari va hayot faoliyatining boshqa sohalaridagi yangiliklar va ijobiy sifat o'zgarishlari sifatida izohlaydi.

Rus olimi Nikipelov A. D. xulosalariga ko'ra, iqtisodiy o'sish sifatining mohiyati — bu mamlakat yalpi ichki mahsuloti kategoriyasining to'laligicha aholi turmush farovonligi kategoriyasiga transformatsiyalanishidir [3].

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlardan U. Madrahimov iqtisodiy o'sish sifati bo'yicha keltirilgan ta'rif va tavsiflarni umumlashtirsak, ular iqtisodiy o'sishni texnika taraqqiyoti va innovatsion faoliyat asosida oshirish masalasiga e'tibor qaratgani holda, ijtimoiy jihatdan yo'naltirilganlik darajasini asosiy o'ringa qo'yishadi [4]. Bugungi kunda takror ishlab chiqarishda ekologik muammolarning kuchayishi, unda ekologik omillarni hisobga olgan holda ijtimoiy takror ishlab chiqarishni tashkil etishni taqozo etuvchi barqaror rivojlanish konsepsiyasining asosi bo'lgan "yashil iqtisodiyot"ni shakllantirish muammosi tobora dolzarblik kasb etmoqda [5].

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada dialektik, tizimli, integral va sinergetik yondashuvlar, iqtisodiy va mantiqiy tahlil, ilmiy abstraksiya, tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, qiyoslash, umumlashtirish, guruhlash hamda jadval usullaridan foydalaniladi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Iqtisodiy adabiyotda "iqtisodiy o'sish" va "iqtisodiy rivojlanish" tushunchalari mavjud. Turli iqtisodiy maktab vakillari bir necha bor o'sish va rivojlanishning o'zaro bog'liqligi muammolari bo'yicha tadqiqotlar olib borishgan. Ushbu tadqiqotlarda mazkur tushunchalar ba'zan bir-biriga tenglashtirilgan bo'lsa-da, ko'pchilik hollarda ular mazmun-mohiyati jihatidan bir-biriga mos kelmaydigan tushunchalar sifatida baholangan. Iqtisodiy rivojlanish iqtisodiy o'sishning jabhalaridan biri hisoblanadimi yoki aynan "rivojlanish" "o'sish"ni o'z ichiga oluvchi kengroq tushuncha sifatida qabul qilinishi kerakmi? Bugungi kunda mazkur savolga berilayotgan javoblar ichida umumqabul qilingan, yakdil fikrlar mavjud emas.

Iqtisodiy o'sish borasidagi tadqiqotlarda "iqtisodiy o'sish" va "iqtisodiy rivojlanish" tushunchalariga o'xshash qarashlar ham keng tarqalganligini inobatga olish zarur. Masalan, professor K. X. Oppenlender o'z fikrini quyidagicha ifoda etadi: "Biz o'sish va rivojlanishni sinonimlar sifatida tushunamiz. O'sish va rivojlanish o'rtasidagi farqlanishlar sun'iydir" [6].

Iqtisodiy o'sish odatda aniq bir son bilan ifodalanuvchi ko'rsatkichga, masalan, yalpi ichki mahsulot (yalpi qo'shilgan qiymat)ga bog'lab qo'yilgan bo'ladi. Iqtisodiy rivojlanish esa jamiyat farovonligi (uning biror jihati yoki moddiy, ma'naviy-axloqiy jihatlarining umumiyli) ko'rinishida aks etadi. Iqtisodiy o'sishni talqin etishda iqtisodiy jihat, iqtisodiy rivojlanishni talqin etishda esa ijtimoiy jihat ustuvorlik qiladi. Demak, iqtisodiy rivojlanish tushunchasining mohiyati iqtisodiy o'sish tushunchasidan tinchlik, xavfsizlik, ekologiya va ijtimoiy adolatni o'z ichiga oluvchi murakkab va keng qamrovli tushunchaga qadar rivojlanib borgan [7].

Iqtisodiy o'sishning tavsifi uning turli xil xususiyatlari yig'indisi hisoblanadi. Uni farovonlik tamoyili asosida ham talqin qilish mumkin. Yalpi ichki mahsulot farovonlikning moddiy asosi sanaladi. Iqtisodiy o'sish har qanday mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining asosini tashkil etadi. Bunda mazkur ko'rsatkichning yuqori darajasini ta'minlash bilan birga uning natijaviyligi, ya'ni samaradorligi va sifati ham muhimdir. Shu asnda, shartli tarzda yalpi ichki mahsulot dinamikasi iqtisodiy o'sishni, jamiyat farovonligi dinamikasi esa iqtisodiy o'sish sifatini ifodalaydi deb hisoblash mumkin. Yalpi ichki mahsulot jamiyat farovonligini shakllantirishda qanchalik ishtirok etsa, iqtisodiy o'sish sifati shunchalik namoyon bo'ladi.

Har qanday ishlab chiqarishning pirovard maqsadi jamiyat ehtiyojlarini qondirishdan iboratdir. Iqtisodiy o'sish sifati esa ushbu ehtiyojlarning yuqori darajada qondirilishi bilan bog'liq bo'lib, farovonlikning asosiy maqsadi hisoblanadi [8]. Shunday qilib, iqtisodiy farovonlik iqtisodiyot va takror ishlab chiqarishning pirovard maqsadi bo'lsa, iqtisodiy o'sish esa oraliq maqsad, ya'ni yalpi ichki mahsulot yaratish zaruriyatidir. Mahsulot yaratish sof ishlab chiqarish jarayoniga xos bo'lsa, farovonlikni oshirish esa takror ishlab chiqarishning barcha bosqichlarini qamrab oluvchi pirovard maqsaddir.

Iqtisodiy o'sish sifati texnika taraqqiyoti va innovatsiyalarga asoslangan ishlab chiqarish, resurslarni tejash, iqtisodiy va ijtimoiy samaradorlikni oshirish bilan tavsiflanadi. Bu mehnat unumdorligining o'sishi va ishchi kuchi mehnat sharoitlarining yaxshilanishi hamda ularning moddiy rag'batlantirilishi ortishini o'z ichiga oladi. Bunda ishchi kuchining kapital bilan ta'minlanganlik darajasi alohida ahamiyatga ega bo'lib, u bandlik va mehnat unumdorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.




Mamlakat iqtisodiyoti oldidagi dolzarb vazifa har ikkala ko'rsatkichni ham oshirishdan iboratdir. Iqtisodiyotning o'sishi bilan uning sifati yaxshilansa, barqaror va samarali ish o'rinlari ulushi ko'payadi, iqtisodiyotning raqobatbardoshligi, resurslardan foydalanish samaradorligi hamda jamiyatning ijtimoiy konsolidatsiya darajasi oshadi [9]. Sifat — bu, avvalo, iqtisodiy o'sish jarayonlarining amalga oshish tavsifidir. Iqtisodiy o'sish sifati farovonlik mezonining iqtisodiy o'sish tamoyili bo'yicha tasniflanadigan iqtisodiy o'zgarishlar jarayonini ifodalaydi.

Uning asosiy talablari iqtisodiyotni barqaror va mutanosib rivojlantirish, qashshoqlikni cheklash, ekologik muvozanatni saqlash, makroiqtisodiy va mintaqaviy nomutanosibliklarni chuqurlashtirmaslikdan iboratdir. Aholi turmush farovonligi yalpi ichki mahsulotning demografik ko'rsatkichlar, sog'liqni saqlash, ta'lim, daromad va xarajatlar, narxlar darajasi, bandlik, mehnat sharoiti, ijtimoiy ta'minot va boshqa ko'rsatkichlar bilan bog'liq yaxshilanishida namoyon bo'ladi.

Iqtisodiy o'sish sifatida yo'qotishlar imkon qadar kamaytirilishi lozim. Bu yalpi ichki mahsulotning jamiyat farovonligiga transformatsiya darajasiga bog'liqdir, chunki ijobiy holatlar bilan bir qatorda salbiy jarayonlar ham yuz berishi mumkin.

Bunday jarayonlarga inson salomatligining yomonlashuvi, atrof-muhitning ifloslanishi, aholining daromad, savodxonlik va hududlar bo'yicha tabaqalanishi kiradi. Ushbu holatlar yalpi ichki mahsulotning to'liq jamiyat farovonligiga aylanish samaradorligini pasaytiradi va yo'qotishlarni oshiradi. Demak, iqtisodiy o'sish sifati farovonlikning o'sishi bilan birga yuzaga keladigan destruktiv holatlarni minimallashtirishda ham namoyon bo'ladi.



1-rasm. Iqtisodiy o'sish sifati tushunchasining tashkiliy-sxematik modeli

1-rasmdan ko'rinadiki, iqtisodiy o'sish sifati salbiy holatlarni minimallashtirishga erishilgan holda, yalpi ichki mahsulotning jamiyat farovonligiga to'liq tarzda transformatsiyalanishini eng yuqori darajada ta'min etilishiga yo'naltirilgan pirovard maqsad sifatidagi farovonlikni tushunamiz.

Yalpi ichki mahsulotning jamiyat farovonligiga transformatsiyalanishi darajasida yuz beruvchi jarayonlarni chuqur tadqiq etish mazkur jarayonlarning favqulodda murakkab, ko'p qirrali va ko'p omilli ekanligini ko'rsatmoqda. "Iqtisodiy o'sish sifati" juda keng qamrovli tushuncha hisoblanadi. Uni qamrab oluvchi barcha jihatlari bilan birgalikda yoritishga harakat qilish, iqtisodiy o'sish sifatining barcha qirralarini ochib berish ilmiy-tadqiqot ishining ilmiy ahamiyatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Iqtisodiy o'sish sifati ta'limotida o'ziga xos yo'nalishlardan biri — bu barqaror iqtisodiy rivojlanishdir. "Barqaror rivojlanish" termini 1987-yilda atrof-muhit va rivojlanish bo'yicha xalqaro komissiya (Brundtland komissiyasi) tomonidan keng muomalaga kiritilgan. Barqaror rivojlanish kelajak avlodlarning ehtiyojlarining qondirilishini shubha ostiga qo'ymagan holda, bugungi ehtiyojlarning samarali tarzda qondirilishini ifoda etadi. Barqaror rivojlanishni ta'minlashning zaruriy talablaridan biri qashshoqlik va uning barcha ko'rinishlariga barham berish hisoblanadi. Buning uchun barchaga birdek qo'shimcha imkoniyatlarni taqdim etish, aholi daromadlari darajasi o'rtasidagi tengsizlikni kamaytirish, ijtimoiy taraqqiyot va integratsiyalashuvga ko'maklashish, aholining bazaviy turmush darajasini oshirish, tabiiy resurslar va ekotizimlardan barqaror foydalanish va ularni oqilona

o'zlashtirish imkonini beruvchi keng qamrovli va barqaror iqtisodiy o'sish sifatini rag'batlantirish talab etiladi.

Bugungi kunda takror ishlab chiqarishda ekologik muammolarning kuchayishi, unda ekologik omillarni hisobga olgan holda "yashil iqtisodiyot"ni shakllantirish muammosi tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. "Yashil iqtisodiyot — bu insonlar farovonligini va ijtimoiy tenglikning yaxshilanishi, ekologik tavakkalchiliklar va ekologik taqchillikni sezilarli darajada kamaytirishga olib keluvchi iqtisodiyotdir" [11]. Insonning tabiatga tajovuzi shunchalik chuqurlashib ketdiki, buning natijasida insonlar hayotiga salbiy ta'sir etuvchi, ortga qaytarib bo'lmaydigan jarayonlar yuzaga kelmoqda. Masalan, bugungi ishlab chiqarish usullari va iste'mol darajasi saqlanib qolgani holda 2050-yilda 2000-yilga nisbatan dunyo flora va faunasi 61 %dan 72 %gacha yo'qotilishi, tabiiy hududlar maydonining 7,5 mln kv. km ga qayta tiklanmaydigan darajada yo'q qilinishi mumkin [12].

Iqtisodiyotda barqaror rivojlanishni ta'minlash va inson farovonligini oshirishga qaratilgan va takror ishlab chiqarish bilan bog'liq "yashil iqtisodiyot"ni tadqiq etgan va takror ishlab chiqarishning atrof-muhitga ta'sirini ekonometrik model orqali hisoblagan olimlardan biri U. Nordxaus bo'ladi [13]. Uning ishlab chiqqan modeliga ko'ra, mamlakatning ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonida foydalanilgan yalpi tabiiy resurslar hajmi uning atmosferaga chiqarayotgan issiqxona gazlari miqdoriga mos keladi. Bu o'z navbatida iqlim temperaturasi ko'tarilishiga ta'sir etadi. Iqlim temperaturasi bir darajaga o'zgarishi birdan kichik bo'lgan ko'paytiruvchi hisobiga keltirilgan ekologik zarar miqdoriga teng bo'ladi. Uning ishlab chiqqan modeliga asoslanib dunyo mamlakatlari hukumatlarining "yashil iqtisodiyot"ni shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha ishlab chiqqan modellariga baho berish mumkin. Bu xalqaro tashkilotlar tomonidan atmosferaga chiqarilayotgan issiqxona gazlari miqdori bo'yicha davlatlarning kvotalarini aniqlashda xizmat qilmoqda.

Iqtisodiy o'sish sifatining muhim iqtisodiy ko'rsatkichlaridan biri mamlakatdagi kambag'allik darajasi ko'rsatkichidir. "Kambag'allik — mehnat uchun resurslarni qayta yaratishning quyi chegarasi sifatidagi ish qobiliyatini saqlash darajasida ne'matlarni iste'mol qilishdir" [14]. Daromadlari minimal yashash darajasidan past bo'lgan, mehnat bozorida raqobatbardosh ta'lim olmagan va o'zlarini kambag'al, aholining quyi qatlamlariga qo'shganlar kambag'allar deb hisoblanishi mumkin. Bunday ta'rif bugungi kunda jamiyatda kambag'allikni namoyon qiluvchi barcha omillarni hisobga olish imkonini beradi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Bugungi kunda barcha rivojlanayotgan mamlakatlarda inklyuziv mehnat bandligi orqali iqtisodiy o'sish sifatini oshirishga qaratilgan uzoq muddatli davlat dasturlari ishlab chiqilmoqda. Inklyuziv iqtisodiy o'sish sifati tushunchasi ilmiy iqtisodiy adabiyotga yaqindagina Jahon banki tadqiqotlari asosidagi nashrlar orqali kirib kelgan. Bugungi globallashuv sharoitida inklyuziv iqtisodiy o'sish sifati talablari yanada kuchaymoqda.

Iqtisodiy o'sish sifati ko'p qirrali jarayondir. Unda uning alohida rivojlanish yo'nalishlari — iqtisodiyot, siyosat, madaniyatning rivojlanishi va uning natijalarida namoyon bo'ladi. Iqtisodiy o'sish natijalari jamiyatning boshqa rivojlanish yo'nalishlari uchun moddiy asos yaratadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh. M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – Toshkent. // "Xalq so'zi", 2025-yil 26-dekabr.
2. Shumpeter Y. Teoriya ekonomicheskogo razvitiya. – M.: Eksmo, 2007. – S. 400.
3. Никипелов А.Д. вопросу об экономическом росте и экономическом развитии / А. Д. Никипелов // Журнал экономической теории. – 2013. – № 4. – С. 1–12.
4. Madrahimov U. Barqaror o'sish sifati va mehnat unumdorligi mutanosibligi asoslari. "Osnovnye napravleniya dalneyshey modernizatsii i povysheniya konkurentosposobnosti natsionalnoy ekonomiki" VII Forumi ekonomistov. – T.: IPMI, 2015. – S. 94.
5. Vahabov A. V. "Barqaror iqtisodiy rivojlanish va yashil iqtisodiyot". O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi: omillar, natijalar va istiqbollar mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani. – TDIU. – B. 14–22.
6. Oppenlander K. H. Wachstumspolitik. – München, 1998. – P. 15.
7. Vahabov A. V., Tadjibayeva D. A., Xajibakiyev Sh. X. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. Darslik. – Toshkent: Baktaria Press, 2015. – B. 49.
8. Tomas V. i dr. Kachestvo rosta. – Vsemirnyy Bank, izd. "Ves mir", Moskva, 2002.
9. Chepel S., Xamidov B. Institutsionalnye predposylki perekhoda k inklyuzivnomu rostu v Uzbekistane // "Jamiyat va boshqaruv". – 2016. – № 2. – B.
10. Shtayner A., Ayris R., Bessa S. I. va boshq. Na vstrechu "zelyonoy ekonomike": puti k ustoychivomu razvitiyu i iskoreneniyu bednosti. – YUNEP / GRID-Arendal, 2011. – S. 17.
11. Perspektivy energeticheskikh tekhnologiy. Ssenarii i strategii do 2050 g. – OECD/IEA; WWF Rossii, red. A. Kokorin, T. Muratova. – M., 2007. – 586 s.



12. Nordhaus W. Projections and uncertainties about climate change in an era of minimal climate policies. NBER Working Paper No. 22933, 2017.

13. Abulqosimov X. P. va boshq. O'zbekistonda aholi turmush darajasining barqaror o'sishi. – Toshkent: Akademiya, 2011. – B. 24.

14. Vahabov A. V., Zaynitdinova U. Barqaror iqtisodiy o'sish omillari // Bozor, pul va kredit. – 2011. – № 6. – B. 39.

Nordhaus W. Projections and uncertainties about climate change in an era of minimal climate policies. NBER Working Paper No. 22933, 2017.

Abulqosimov X. P. va boshq. O'zbekistonda aholi turmush darajasining barqaror o'sishi. – Toshkent: Akademiya, 2011. – B. 24.

Vahabov A. V., Zaynitdinova U. Barqaror iqtisodiy o'sish omillari // Bozor, pul va kredit. – 2011. – № 6. – B. 39.

# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

---

**2026. № 4**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)